

PEDAGOGIK MAHORAT

8
2023



SAN’AT

XALQ AMALIY BEZAK SAN’ATINI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Samiyeva Shaxnoz Xikmatovna,

Buxoro davlat universiteti dotsenti

Aslanova Nargiza Xikmatovna,

Buxoro tumani 17-umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchisi

Ushbu maqolada o’zbek xalq amaliy bezak san’ati, xalqimizning moddiy hamda madaniy merosi hisoblanmish mahobatli me’moriy obidalar, noyob va go’zallikni o’zida tarannum etgan zebu-ziynatlar, har hil ro’zg’or anjomlari, ip va ipakdan tikilgan matolar, loy va ganchdan yasalgan sopol hamda chinni idishlar, xum va xumdonlar, kulolchilik san’atiga mansub bo’lgan buyumlar ularning pedagogik va didaktik imkoniyatkari haqida fikr yuritilgan. O’zbekiston jabhasida qadimdan har vohaning amaliy hunarmandchiligi markazlari vujudga kelganligi va asrlar davomida shakllanib borgani hamda Farg’ona viloyatining Marg’ilon, Qo’qon, Namangan viloyatining Chust, Andijon viloyatida Shahrixon, Buxoro viloyatida Gijduvon, Buxoro shahri, Qashqadaryo viloyatida Qarshi, Samarqand viloyatida Urgut, Surxandaryo viloyatida Boysun kabi markazlarning farqlari ta’kidlangan.

Kalit so’zlar: jadval, xaritalar, reproduksiya, metodika, darsdan tashqari ishlar, hunarmandchilik.

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ДЛЯ РАЗВИТИЯ НАРОДНОГО ПРИКЛАДНОГО ДЕКОРАТИВНОГО ИСКУССТВА

В этой статье обсуждаются педагогический и дидактический потенциал узбекского народного декоративного искусства, великолепные памятники архитектуры, считающиеся материальным и культурным достоянием нашего народа, уникальные и красивые украшения, всевозможные предметы домашнего обихода, ниточные и шелковые швейные ткани, гончарные и фарфоровые сосуды из глины и гача, хум и хумдоны, предметы, относящиеся к гончарному искусству. Отмечены отличия таких центров, как Маргелан, Коканд в Ферганской области, Чуст в Наманганской области, Шахрихан в Андижанской области, Гиждуван в Бухарской области, Карши в Кашкадарьинской области, Ургут в Самаркандской области, Бойсун в Сурхандарьинской области.

Ключевые слова: таблица, карты, репродукция, методика, внеклассная работа, поделки.

DIDACTIC OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF FOLK DECORATIVE ART

In this article, Uzbek folk decorative art, magnificent architectural monuments that are considered the material and cultural heritage of our nation, unique and beautiful ornaments, all kinds of household items, thread and silk sewed fabrics, pottery and porcelain vessels made of clay and alabaster, jug and kilns, items belonging to the art of pottery were discussed about their pedagogical and didactic potential. Differences of such centers as Borgani and Fergana region, Koqon, Chust of Namangan region, Shahrikhan in Andijan region, Gijduvon in Bukhara region, Karshi in Kashkadarya region, Urgut in Samarkand region, Boysun in Surkhandarya region are emphasized.

Key words: table, maps, reproduction, methodology, extracurricular activities, crafts.

Kirish. Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyotining jadallik bilan rivojlanib borishi innovatsion texnologiyalarni o’zlashtirish bilan bog’liq bo’lgan o’zgarishlar, yangi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy o’zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Dunyo ta’lim tizimi mexanizmlari va strategiyalarini zamonaviy rivojlanish tamoyillari asosida umumiy o’rta ta’lim tizimini takomillashtirish, kreativ fikrlovchi o’quvchi shaxsini tarbiyalash uchun taraqqiyot tendensiyalariga mos ravishda o’quv jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish va uning samaradorligini baholash asosida pedagogik faoliyatga o’zgartirishlar kiritish faol fikrlovchi shaxsni tayyorlashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Asosiy qism. Shu sababli mamlakatimiz umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash mazmunini:

- o‘quvchilarda vatanparvarlik, insonparvarlik, umummadaniy kompetensiyalar, san’at, madaniyatga qiziqtirish asosida axloqiy-estetik va jismoniy sifatlarni rivojlantirish;
- o‘quvchilarda san’atni sevish, estetik madaniyatni shakllantirish, madaniy meros va milliy qadriyatlarga chuqur hurmat hissini tarbiyalash;
- o‘quvchilarda mehnatsevarlik, ijodkorlik, tejamkorlik, tashabbuskorlik va tadbirkorlik sifatlarini tarkib toptirish;
- o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy va innovatsion fikrlashni shakllantirish, o‘zo‘zini rivojlantirish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat.

Shuningdek, o‘quvchilarda tasviriy savodxonlik, badiiy-ijodiy fantaziyani, badiiy-estetik va ijtimoiy-emotsional ko‘nikmalarni, milliy, umummadaniy qadriyatlarga asoslangan shaxsiy fazilatlarini, amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, ularning badiiy tafakkurini shakllantirish orqali tasviriy va amaliy san’at asarlarini estetik idrok etish kompetensiyalarini takomillashtirishni ko‘zda tutadi. O‘zbek xalqi hunarmandchiligining tarixiy ildizlari xalq amaliy san’ati asosida taraqqiy etib juda qadimgi, mumtoz hamda buzrukvor asriy tajribalarga tayangan. Milliy san’atimiz o‘zining serunum hamda serjiloligi bilan har bir insonni hayratga solib kelgan madaniy merosimizdir.

Odamzotning madaniyatga bo‘lgan ilk qadami ibtidoiy davrdan boshlanganligini yuqorida qayd etdik. Turmush, tirikchilik hamda uy-ro‘zg‘or taqozosi talablari bilan vujudga kelgan buyumlar, kundalik zarurat uchun kerakli bo‘lgan asbob-anjoblar yasash hamda ularni har hil ko‘rinish va shakllarda ijod etish har bir davrning majburiyatiga aylanib qolgan. Bu buyumlar turmushda foydalanishga qulay, sodda hamda katta kuch talab qilmay qilishiga qaramay yillar o‘tishi bilan ularning zamon talabalariga moslanishi, yangicha nusxa hamda ko‘rinishlarida ijod etilishi o‘z davrining mohir ustalaridan ijodiy izlanish va safarbarlik talab etib kelgan. Madaniy merosimiz hisoblanmish mahobatli me‘moriy obidalar, noyob va go‘zallikka o‘zida tarannum etgan zebu-ziynatlar, har hil ro‘zg‘or anjomlari, ip va ipakdan tikilgan matolar, loy va ganchdan yasalgan sopol hamda chinni idishlar, xum va xumdonlar, kulolchilik san’atiga mansub bo‘lgan buyumlar barchasi xalqimizning moddiy hamda madaniy merosi bo‘lib kelmoqda. Shu boisdan xalq ustalari yaratgan noyob asarlarga e‘tiborimiz yanada kuchaymoqda. Usto bobokalonlarimizning hayotiy hamda ijodiy yo‘lini o‘rganish, ularning sermahsul an‘analarini bilish, ular yaratgan uslub va yo‘llarni yanada takomillashtirish, go‘zallikka bo‘lgan intilishlarini chuqur his etish davrimiz talabi bo‘lib qolmoqda.

Toshni kesish, ularga pardoz berish san’ati ham davr kishilarining estetik qarashlarining rivoji edi. Yangi tosh asrining xarakterli tomoni, yangiligi bu mayda plastika haykaltaroshligini hayotga kirib kelishi bo‘ldi. Bu davrda amaliy san’atning yangi turlari paydo bo‘la boshladi. Mil. avvalgi 2000-yillarda Surxondaryoning Sherobod daryosi havzasi, Qizilsuv, Bandixon soylari atrofida shakllangan madaniyat O‘zbekiston tarixida muhim o‘rin egallaydi. Sopollitepa katta qishloq jamoasi tarzida qurilgan bo‘lib, uning markazida ko‘rinishi jihatidan kvadrat shaklidagi murakkab rejali qo‘rg‘on qurilgan. Qo‘rg‘on ichida kulolchilik ustaxonasida xo‘jalik uchun zarur bo‘lgan idishlar ishlab chiqarilgan. Shu madaniyatda kulolchilik va metal ya‘ni bronza quyish san’ati rivojlangan. Sopollitepadan topilgan kulolchilik buyumlari deyarli bezaksiz va o‘z shakli rang-barangligi, nisbatlarining o‘ziga xos nafisligi hamda loydan nozik, yupqa va yengil idishlar yarata olish xususiyati shu davr ustalarining yuksak mahorati, sopolsozlik texnologiyasini chuqur o‘zlashtirganliklaridan dalolat beradi.¹ Azaldan farzand dunyoga kelsa, uning kelajagi porloq bo‘lishini o‘ylab yoshlikdan kasb-hunar o‘rganishga rag‘bat uyg‘otishgan. Jahonga mashhur otobobolarimizdan Said Amir Kulol, Bahouddin Naqshband, Amir Temur kabi ulug‘larimiz hunar o‘rganish haqida talay ishlarni amalga oshirganlar. Jumladan, ular amaliy san’atning kulolchilik, naqqoshlik, matoga gul bosish kabi turlari ustalari bo‘lishgan.

Jahon tarixi amaliy san’atiga nazar soladigan bo‘lsak, Yaponiyada 10 ming yil oldin mashhur bo‘lgan “Jomon” ya‘ni “arqonli bezak” deb ataluvchi bezak texnikasi paydo bo‘lgan. Unda ustalar tayoq yoki suyak bo‘lagini olib, uning atrofiga ip o‘rashgan va uni xom loy mahsulotiga bostirishgan. Shunday qilib, idishlar va haykalchalarda g‘alati naqshlar paydo bo‘ldi. Kulolchilik amaliy san’atning dastlabki turlaridan biri hisoblangan. Bora-bora o‘ymakorlik, kashtachilik, kabi san’at turlari paydo bo‘la boshlagan. Uyg‘onish davri madaniyatida amaliy san’at muhim o‘rin tutgan. Yevropa aristokratlari hunarmandlardan nafis mebel va to‘qimachilik buyumlarini buyurtma qilishgan.

Qadimshunos va tarixchi olimlarimizning tadqiqotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston jabhasida qadimdan har vohaning amaliy hunarmandchiligi markazlari vujudga kelgan va asrlar davomida shakllanib borgan. Bu markazlarda, yuqorida ta’kidlaganimizdek, xalq ehtiyoji uchun kerakli bo‘lgan buyumlar ishlab

¹ <https://ocau.uz/uz/ibtidoiy-jamoa-davri-sanati>

chiqarilgan va bozorlarda sotilgan. Farg‘ona viloyatining Marg‘ilon, Qo‘qon, Namangan viloyatining Chust, Andijon viloyatida Shahrixon, Buxoro viloyatida Gijduvon, Buxoro shahri, Qashqadaryo viloyatida Qarshi, Samarqand viloyatida Urgut, Surxandaryo viloyatida Boysun ana shu markazlardandir. Bu shaharlarda hunarmandlar alohida-alohida, yoki to‘p-to‘p bo‘lib yashashi natijasida har bir mahalla muayyan kasbiy hunar nomi bilan atalib kelingan. Bular misgarlik, to‘qimachilik, po‘stindo‘zlik, yurmado‘zlik, pichoqchilik, zargarlik, ko‘nehilar, mahsigarlar, do‘ppido‘zlik, tandirchilar, va o‘nlab boshqa turdagi hunar nomlarini misol qilish mumkin. Mamlakatimizda amaliy-bezak san‘ati ikki yo‘nalishda rivojlanmoqda:

- Badiiy hunarmandchilik, bu yo‘nalishga viloyatlarimizda faoliyat yuritayotgan korxonalarini faoliyatini kiritish mumkin.

- Xalq amaliy bezak san‘ati. Bu yo‘nalishda, asosan mustaqil ravishda ish olib borayotgan usta hunarmandlar faoliyatini kiritish mumkin.

Xalq amaliy bezak san‘ati har bir xalqda, hattoki har bir hududda mavjud bo‘lib, ular birbiridan yuqorida qayd qilinganidek, amaliy san‘atning janrlari, buyumlar tayyorlashda qo‘llanadigan material, shakl, tuzilish, rang, bezak, o‘lchovlar jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Xalq amaliy bezak san‘atining yana bir muhim xarakterli belgilaridan biri shundan iboratki, ushbu san‘at ming yillar davomida xalq ustalari ijodida qo‘llanib kelingan badiiy an‘analar hisoblanadi. Bu xususiyat ko‘proq har bir xalqning yashayotgan muhiti, tabiati hamda iqlim sharoitlariga bog‘liqdir. Chunki, amaliy san‘at ustasi o‘z asarini yaratayotganda, go‘zallikni, ijodiy ilhomni tevarak-atrofdan, tabiatdan oladi. Masalan, o‘zbek xalq ustalari o‘z ishlarida toychoq, qo‘zichoq, tovus tasvirlarini, shimoliy o‘lkalarning ustalari esa bug‘u, kiyik tasvirlarini ko‘proq ishlaydilar. Asar materialiga esa o‘zbek ustalari muhitdan kelib chiqib ganch, loy, mis kabilarni, shimoliy xalqlar yog‘och va hayvon suyaklarini ko‘proq qo‘llaydilar. Yuqorida qayd qilganimizdek, asar koloritiga iqlim ham juda sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadi. Shimoliy o‘lkalar iqlimi sovuq bo‘lgani uchun u yerdagi ustalar asosan sovuq ranglarni, issiq iqlimli O‘zbekiston ustalari esa iliq ranglarni ishlatadilar. Shunday qilib, har bir xalqning amaliy bezak san‘atida o‘z an‘analari aks ettiriladi, shakllanadi. Amaliy san‘at buyumlarini tayyorlash jarayonida ahamiyat berilishi lozim bo‘lgan qoidalar mavjud. Buyumning vazifasi, shakli, bezagi, materiali, rangi, o‘lchovlariga rioya qilishni talab etadi. Shundaygina, bu buyumlar kishilarni hayajonlantiradi, to‘lqinlantiradi, ya‘ni ularning ruhiyatiga ta‘sir qiladi

O‘quvchilarga ushbu san‘atlarning ijtimoiy mohiyati va ahamiyatini anglash, idrok etish va baholash, ularga estetik munosabat bildirish malakalarini tarkib toptirish, amaliy san‘at, badiiy hunarmandchilik namunalari bilan tanishtirish orqali ularning o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi nazariy bilim va amaliy malakalarini tarbiyalash, shaxsan muhim ahamiyatga ega bo‘lgan badiiy madaniyat an‘analariga faol munosabatni shakllantirish muhimdir. Umumiy o‘rta, kasb-hunar maktablarida va oliy o‘quv yurtlaridagi o‘quvchi-talabalarimizni ajdodlarimiz qoldirgan, ma‘naviy merosimiz bo‘lmish me‘moriy yodgorliklar va amaliy san‘at asarlaridagi ramziy bezaklarni o‘qiy olishga, undagi mantiqiy falsafiy g‘oyalarni to‘g‘ri anglashga o‘rgatish zarurdir. Bugungi kunda amaliy san‘atning ayrim turlarini darsdan tashqari mashg‘ulotlarda yoshlarga o‘rgatish birmuncha takomillashib, mutaxassis olimlar tomonidan yangi shakl, yo‘nalishlari ishlab chiqilmoqda. Professor S.Bulatov va Q.Qosimovlar tomonlaridan bir muncha ishlar amalga oshirildi. Respublika “Barkamol avlod” bolalar ijodiyot markazi tomonidan esa mualliflar Sh. G‘iyosov, J.Tillayevlar ishtirokida “Kulolchilik”, ”Zargarlik”, ”Gilamdo‘zlik”, “Mayda plastika haykaltaroshligi” to‘garak dasturlari ishlab chiqildi. Hozirgi kunda xalq amaliy san‘atini o‘zlashtirish metodikasi pedagogik va innovatsion texnologiyalarning yangi bosqichiga ko‘tarilmoqda. Xalq amaliy san‘ati an‘analariga asoslangan badiiy ta‘limning asosiy tomoni amaliy san‘at namunalari, ularning kelib chiqish tarixi, tayyorlash jarayonini mukammal bilish bilan bog‘liqdir. Bunday namunalar azaldan inson e‘tiborni o‘ziga tortgan va shaxs estetikasini tarbiyalashning to‘liq qismiga aylangan. Ota-bobolarimizdan bizga qolgan abadiy, navqiron, yorqin merosdir. Xalq amaliy bezak san‘atining asosi bilamizki bevosita milliy hunarmandchiligimiz ildiziga borib taqaladi. Badiiy hunarmandchilikni pedagogik, metodik asoslarini o‘rganish bo‘yicha ishlangan ko‘pgina o‘quv dasturlarida xalq amaliy san‘ati turlari namunalari katta e‘tibor beriladi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarga amaliy san‘at haqida boshlang‘ich bilim bera olish imkoniyati, ularni kasb-hunarga yoshlikdan rag‘bat uyg‘otish, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bilan birga qo‘shimcha iqtisodiy daromad topishga o‘rgatadi.

Xulosa. Fikrimiz yakunida shuni ta‘kidlamochimizki, amaliy san‘at turlarini o‘quvchilarga o‘rgatish bir qancha didaktik imkoniyatlarga egadir. Bular uslubiy materiallardan foydalanish, agar qobiliyat imkon bersa hunarmandchilikni obdon o‘rganib san‘at va hunarmandchilikka va didaktik jihozlar yasash, vizual materiallardan foydalanish (jadvallar, xaritalar, reproduksiya, slaydlar va boshqalar), maktab atrofidagi hunarmandchilik ustaxonalariga sayohat uyushtirish, darsdan tashqari mashg‘ulotlarda ko‘proq mavzularni amaliy bezak san‘ati mavzulariga bag‘ishlashdan iboratdir.

Adabiyotlar:

1. Boymetov B. va Tolibov N. Maktabda tasviriy san’at to‘garagi. –T.: 1995
2. Oripov B.N . Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. –T.: 2012. b 153
3. Sulaymonov A., I.Rahmonov. Tasviriy san’at 4-sinf darslik.
4. To‘qsanova V. Amaliy san’at turlari. Buxoro. 2020 y.
5. Alimova Nozima, & Akhmadov Sarvar. (2021). Improving technologies of individualization of education in teaching english to students of nophylogical direction. Euro-Asia Conferences, 8–10. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/517>
6. Maxmurova Mavjuda Halimovna, Linguistic basis of teaching oral communication of students in german language lessons (https://colloquium-publishing.ru/assets/l_2_7.pdf#page=66) 2020/12/15 Bridge to science: research works Ctp 65.
7. Khaydarova L. «The usage of interactive methods while developing reading skills of young learners» Science and innovation, vol. 1, no. B7, 2022, pp. 324-328. doi:10.5281/zenodo.7236481
8. Rakhmonova Dilfuza Mahmudovna Identifying the potential of students of pre-school educational organizations Ann. For. Res. 65(1): 7853-7858, 2022
9. Sumaira Nawaz, Khaitova Gulshan Bahodirovna, and Akhmedova Mehrinigor Bahodirovna. “Explanation of Agricultural Terms in Dictionaries”. Indonesian Journal of Innovation Studies, Vol. 18, May 2022, doi:10.21070/ijins.v18i.606.
10. Akhmedova Mekhrinigor. The meaning of spirituality: different approaches and development of the word. Science and practice: a new level of integration in the modern world. 2018/4/28. - P.110-113